O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti

Tabiyotshunoslik va geografiya fakul`teti

«Geografiya va iqtisodiyot bilim asoslari» kafedrasi

« Geografiya va iqtisodiyot bilim asoslari» bakalavr ta`lim yo`nalishining 4 «b» kurs talabasi

Medetov Nurpolat

« Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning mohiyati va asosiy iyunalishlari » mavzusidagi bakalavr

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. i.f.n., Turebekov A.

Kafedra mudiri: dots.p.i.n. Gaypova R.

Nukus - 2014

MUNDARİJA:

Kirish …….....

1-bob. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning nazariy asoslari

1.1. Qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning nazariy asoslari

1.2. Qishloq xo`jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaligida moliyaviy mablag`lardan foydalanishning samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari

2-bob. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati, rivojlanishining asosiy xususiyatlari

2.2. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati……....

2.2. Qishloq xo`jaligini modernizatsiyalash borasida jahon mamlakatlari tajribalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda xalq xo`jaligining asosiy tarmog`i bo`lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar olib borildi. Qishloq xo`jaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar shakllandi. Agrar sohadagi bu xo`jalik yuritishning turli shakllari, asosan, fermer, dehqon xo`jaliklari bo`lib, respublika qonunchilik organlari tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratilib, xalq muhokamasidan so`ng qonuniy asos sifatida amaliyotda o`z ijobiy natijalarini bermoqda.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarining asosi bo`lgan bozor va bozor munosabatlari asosida har bir tarmoqni rivojlantirish orqali yuqori samara li natijalarga erishish ko`zda tutilgan. Ayniqsa, agrar tarmoqni rivojlantirishda bu dasturning bajarilishi o`z samarasini berib kelmoqda. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissini ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni erkin taqsimlashi hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi.

Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaliklari boshqa sub`ektlarga nisbatan, amaliyotda o`zining bir qancha ijobiy hamda iqtisodiy ustunliklarini ko`rsatdi. Bu esa bozor munosabatlarida qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishni ko`paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istiqbolli xalq xo`jalik yo`nalishiga mos kelishini inobatga olib, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo`nalishlari to`qrisida"gi PF-3226-sonli Farmoni qabul qilinib, unda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo`nalish qilib belgilandi. Farmonni amliyotga tatbiq qilish bo`yicha fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko`zda tutildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi PF-3342

sonli "2004-2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to`qrisida"gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrda 476-sonli "2004-2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasinini amalga oshirish chora-tadbirlari to`qrisida"gi va 2004 yil 24 dekabrdagi 607 -sonli "2005-2007 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`qrisida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan qishloq xo`jaligi maqsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo`jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun qulay sha rt-sharoitlar yaratish, shuningdek, qishloqda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosiy masala qilib belgilandi.

Ushbu me`yoriy hujjatlarda ko`zda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi respublikamiz fermer xo`jaliklarining har tomonlama samarali faoliyat yuritishlari uchun muhim dasturilamal bo`lib xizmat qilmoqda. Chunki hozirgi bozor iqtisodiyoti fermer xo`jaliklarini yanada rivojlantirish va ularni samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Buni prezidentimiz I.A.Karimov o`z asarlarida quyidagicha izohlaydilar: “Shu bilan birga, o`tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo`jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog`liq masalalarni hal qilishni qat`iy talab etmoqda”.

Darhaqiqat, fermer xo`jaliklarining barqarorligi va ular faoliyatining samaradorligi respublikamiz qishloq xo`jaligi rivojlanishining muhim shartlaridan hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo`jaligini isloh qilish, modernizatsiyalash va uning tarkibiy tuzilishlarini diversifikatsiyalash ushbu tarmoqlarda zamonaviy ko`rinishdagi va har tomonlama raqobatga chidamli faoliyat sub`ektlarini rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qili shini hayotning o`zi ko`rsatmoqda. Shuni e`tiborga olgan holda, o`tgan davr mobaynida iqtisodiyot va qishloq xo`jaligini erkinlashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash borasida ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi. Bular esa, o`z navbatida, respublikamiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish, har

xil iqtisodiy-ijtimoiy tahdidlarni samarali hal qilish imkonini bermoqda. Ushbu holatni prezidentimiz o`z asarlarida quyidagicha yoritganlar: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta`sirlaridan himoya qiladigan kuchli to`siq, aytish mumkinki, mustahkan va ishonchli himoya vositasini yaratdi”.

Respublikamizda fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, ularni faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish bo`yicha yetarli daraja da ilmiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan.

Bu borada tadbirlar ko`lami O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari yerlarini optimallashtirish va yiriklashtirish to‘g‘risida”gi, 2009 yilning 22 oktabrida “Fermer xo`jaliklarining yer uchastkalari hajmlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” Farmoyishlari hamda 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari tog`risida”gi Qarorida keltirilgan vazifalar bilan kengaytirildi. Bu me`yoriy hujjatlarga muvofiq, mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo`jaligida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo`naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko`proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to`siq va g`ovlarni olib tashlash kichik biznes subektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tadbiq etishni yo`lga qo`yish amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar pirovardida fermer xo`jaliklari ishlab chiqarish faoliyati turlarini kengayishiga hamda qo`shimcha faoliyat turlarini tashkil qilinishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Bozor iqtisodi sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ularni faoliyatini moliyalashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti sifatida Qoraqalpog`iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaliklari tanlangan.

1-bob. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning nazariy asoslari

1.1. Qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning nazariy asoslari

Bozor iqtisodi sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirish ularning takror ishlab chiqarishi davomiyligini ta`minlaydi. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirish respublika iqtisodiyoti uchun kat ta ahamiyatga ega bo`lib, ularni moliyalashtirish bo`yicha ishonchli tizim va mexanizmlar yaxshi yo`lga qo`yilgan. Buni Prezidentimiz quyidagicha izohlaydilar: “Hozirgi kunda fermer xo`jaliklari qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o`zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda moddiy-texnik ta`minlash va moliyalash bo`yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to`liq javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatmoqda ”.

Hozirda ishlab chiqarish sub`ektlarini moliyalashtirish ishlari umumiy tarzda investitsion faoliyat deb nomlanadi. Ushbu investitsion faoliyatning ob`ekti hisoblangan investitsiya mablag`lari yangi, samarali texnologiya hamda intellektual mulkni barpo etishga xizmat qiladi. Investitsiya mablag`lari doimiy va o`zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish, ularni rivojlantirish uchun sarflanadi. Fermer xo`jaligi investitsiya mablag`larini asosiy vositalarni sotib olish, qurish va kapital ta'mirlashga hamda aylanma vositalarga sarflaydi. Investsiyalar fermer xo`jaligining ishlab chiqarish vositalarini barpo etadi va ishga yaroqliligini ta'minlaydi.

Fermer xo`jaligining ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag`lar investitsiyalar deb ataladi. Investitsiyalar orqali fermer xo`jaligining moddiy-texnika bazasini yaratish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalash natijasida sarfxarajatlar kamaytirilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko`paytirish va sifatini yaxshilash orqali daromadni oshirish qishloq xo`jaligi investitsion siyosatining asosidir.

Investitsiya mablag`laridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida O`zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to`g`risida"gi, "Chet el investitsiyalari to`g`risida"gi (1998 y.) qonunlari qabul qilindi. Unda investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko`ra 3 ga bo`linadi:

1. Kapital investitsiyalar asosiy fondlarni barpo etishga, takror ishlab chiqarishga va moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalardir.

2. Innovatsiya investitsiyalari deb, texnika, texnologiyalar yangi avlodini yaratish va o`zlashtirishga sarflangan investitsiyalarga aytiladi.

3. Ijtimoiy investitsiyalar inso n salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, moddiy iste'mollarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag`lar.

Kapital qo`yilmalarning fermer xo`jaligidagi ahamiyati yuqori bo`lib, birinchidan, kapital qo`yilmalar - jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi.

Kapital qo`yilmalardagi o`zgarishlar jami talabga yetarlicha ta'sir ko`rsatadi, shuningdek aholining bandligi va yalpi milliy daromad (YAMD) hajmining ham o`zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo`yilmalar fermerlarning asosiy fondlari jamg`arilishiga, ya'ni ko`payishiga olib keladi.

Uchinchidan, kapital qo`yilmalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o`sishiga olib keladi, natijada YAMD qisqaradi.

Investitsiyalar fermer xo`jaligini har tomonlama rivojlantirib, moddiy texnika bazasini mustahkamlaydi. Ulardan samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, sof foyda miqdori ko`payadi. Natijada fermer xo`jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Fermer xo`jaliklarining barcha investitsiyalari ikkita manbadan:

korxonaning o`z mablarlaridan va chetdan jalb qilingan mablag`lardan shakllanadi.

Fermer xo`jaligining o`z mablag`lariga quyidagilar kiradi:

- fermer xo`jaligining sof foydasidan ajratilayotgan mablag`lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag`lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag`lar;
- chorva mollarini sotishdan tushgan mablag’lar;
- fermer xo`jaligining qimmatli qog`ozlar sotish va sotib olishidan kelgan

mablag`lar.

Chetdan jalb qilingan mablag`larga:

- fermer xo`jaligiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag`lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag`lar;
- turli xil qarzlar va bank kreditlari;
- xo`jalik a'zolarining bo`sh mablag`larini jalb etish;
- xorijiy va mahalliy shaxsiy korxonalar hamda fuqarolarning mablag`lari;
- homiylar ajratayotgan xayriya mablag`lari va boshqalar.

Kapital - fermer xo`jaligi moliyaviy natijalarining bir qismi bo`lib, aylanma fondlarga qo`yilib, daromad keltiradi. Kapitalning aylanma fondlarga qo`yilishi to`g`ri portfelli investitsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya qilishda fermer xo`jaligining o`z mablag`laridan foydalanishi ikkita ustunlikka ega: birinchidan, fermer xo`jaligining tashqi to`lovlari mavjud bo`lmaydi (olingan kreditlar bo`yicha foiz, aksiyalar bo`yicha dividentlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek fermer xo`jaligini boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Fermer xo`jaligi faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlari muhim o`rin egallaydi. Tijorat banklari tomonidan mikrokredit berish O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 22 fevraldagi 464-sonli qarori va Adliya vazirligining 2000 yil 29 fevraldagi 903- raqam bilan ro`yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash Tartibi" va unga kiritilgan 1-sonli o`zgarishlar bilan amalga oshiriladi.

Mazkur Tartib tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarga mikrokreditlar berishni tartibga soladi. Bu ishlar tijorat banklari tomonidan mikrokreditlarni berish, qaytarish, to`lash, ta'minlash, muddatli va maqsadli foydalanish kabi shartlar asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklariga va kichik biznesning boshqa sub'ektlariga beriladigan mikrokreditlar deganda, kredit beriladigan kundagi Respublika Markaziy banki kursi hisobida 10000 (o`n ming) AQSh dollari ekvivalenti miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valyutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

Tijorat banklari mikrokreditlarni qarz oluvchilarga shartnoma asosida 3 yilgacha bo`lgan muddatga beradilar. Kreditlar mijozning talab qilib olingunicha depozit hisob raqami joylashgan manzil bo`yicha beriladi. Faqat dehqon va fermer xo`jaliklariga mikrokreditlarning 50 foizgacha miqdori aholidan chorva mollari, parranda, urug`lik va ko`chatlarni sotib olishiga, 1,5 yil (18 oy) gacha bo`lgan muddatga qaytarish sharti bilan, naqd pulda berilishiga ruxsat beriladi. Mikrokreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- kichik (mini) uskunalarni xarid qilish;
- fermer xo`jaliklarida xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan qishloq xo`jalik texnikasini sotib olish, inshootlarni

qurish, urug`lik, chorva mollari, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak va omuxta yem, veterinariya dori-darmonlari, kimyoviy vositalari va mineral o`g`itlarini sotib olish o`simliklarni himoya qilish;

- xom-ashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish;
- mehnat qurollari, xom-ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va yordamchi ashyolarni xarid qilish;
- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish;
- hunarmandchilikni rivojlantirish, uy mehnati(kasanachilik)ni tashkil qilish;
- servis xizmati va maishiy xizmat ko`rsatishni rivojlantirish;
- soliq to`lashni rivojlantirish;
- sayyohlik (turizm) sohasini rivojlantirish;
- kichik ko`lamdagi ishlab chiqarishlarni tashkil kilish.

Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalarining miqdori qarz oluvchi va bank o`rtasidagi o`zaro kelishuvga ko`ra, kredit shartnomasi asosida, ammo Markaziy bank tomonidan rasman o`rnatilgan qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo`lmagan miqdorda belgilanadi.

Maxsus mikrokreditlash jamg`armasi mablag`lari hisobidan beriladigan mikrokreditlarda imtiyozli foiz stavkalarini belgilash tavsiya etiladi.

Fermer xo`jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari orqali kreditlash O`zbekiston Respublkasi Moliya vazirligining 2003 yil 8 noyabrdagi 124 -sonli, Markaziy bank boshqaruvining 2003 yil 8 noyabrdagi 242-V sonli qarorlari

bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 6 yanvarda 1285 - raqam bilan ro`yxatga olingan "Fermer xo`jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g`alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to`g`risida Nizom" asosida amalga oshiriladi.

Nizomda 2003 yil hosilidan boshlab, Buxoro, Namangan, Farg`ona, Xorazm viloyatlarida joylashgan fermer xo`jaliklariga, 2004 yil hosilidan boshlab,

Andijon, Jizzax, Navoiy, Samarqand viloyatlarida joylashgan fermer xo`jaliklariga va 2005 yil hosilidan boshlab, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatida joylashgan fermer xo`jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo`jalik mahsulotlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari va byudjetdan tashqari fondlar hisobidan quyidagi kredit ajratmalari berilishi belgilangan.

Kreditlar fermer xo`jaliklariga ular tomonidan davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan g`alla va paxta xom-ashyosi qiymatining 50 foizigacha miqdorida beriladi.

Fermer xo`jaliklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan

mahsulot hajmining qiymati "O`zpaxtasanoat" uyushmasi va "O`zdonmahsulot" DAK korxonalari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda o`rnatiladi.

Bunda, kredit miqdori tayyorlov korxonalari tomonidan fermer xo`jaligiga yetkazib beriladigan urug`lik mahsulot qiymatiga kamayadi. Kredit miqdorini aniqlash uchun kredit shartnomasini tuzish vaqtida xarid narxlar asos qilib olinadi.

Xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori qayta hisoblab chiqilishi lozim.

Mazkur kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to`lash uchun;
- mineral o`g`it va o`simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;
- yoqilg`i moylash materiallarini xarid qilish uchun;
- MTPlar, Muqobil MTPlar, Suv iste`molchilari uyushmalari va boshqa
- shaxslarning xizmatlariga to`lovlar uchun;
- - xo`jalik ixtiyoridagi texnikalarga ehtiyot qismlarni sotib olish uchun;
- - moliyaviy lizingga berilgan texnika vositalarining lizing to`lovlari uchun;
- - elektroenergiya to`lovlari uchun;
- - plyonka ostiga ekiladigan paxtaga polietilen plyonkasini xarid qilish
- uchun;
- - kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash xizmatlariga to`lovlar uchun;
- - yagona yer solig`i to`lovi uchun.

Beriladigan kredit miqdorini aniqlash uchun O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrotexkartalardan kelib chiqqan holda, har bir qishloq xo`jaligi ekini bo`yicha har bir xarajat turining eng ko`p me'yori (qishloq xo`jalik yilining tegishli davrlari yoyilmasi bilan) har yili hosil uchun tasdiqlanadi.

Fermer xo`jaligining biror bir xarajat turi bo`yicha to`lovlarga ehtiyoji bo`lmagan hollarda, mazkur oy uchun umumiy ajratilgan mablag`lar fermer

xo`jaliklari tomonidan boshqa ruxsat etilgan ehtiyojlari uchun (ish haqidan tashqari) o`rnatilgan yillik me'yor doirasida ishlatilishi mumkin.

Kreditlar tegishli qishloq xo`jalik mahsuloti bo`yicha fermer xo`jaliklari bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin 18 oydan ko`p bo`lmagan muddatda, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi. Bu kreditlar bo`yicha imtiyozli foiz stavkasi yillik 5 foiz miqdorida belgilanib, uning 2,5 foizi bank marjasini tashkil qiladi.

Fermer xo`jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzilgandan so`ng, to`lov shartnomalariga xizmat ko`rsatuvchi tijorat banklari, fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi har bir bank filiali bo`yicha ma'lumot tayyorlab, kreditlashni rasmiylashtirish uchun ularning viloyat filiallariga taqdim etiladi. Banklarning respublika filiallari, o`z navbatida, bu ma'lumotlarni fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi filiallarga yetkazadi.

Tez rivojlanayotgan raqobat muhiti sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning yana bir shartlaridan biri xorijiy investitsiyalar oqimini ko`paytirishdir. Chunki ishlab chiqarishning bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishni chet el investitsiyalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalar - chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Xorijiy investitsiyalarga, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida, tadbirkorlik faoliyatini qonun hujjatlarida taqiqlanmagan ob'ektlariga qo`shadigan barcha turdagi chet el moddiy va nomoddiy boyliklar kiradi. Fermer

xo`jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banklarining respublikadagi bo`limlari hamda AQSh, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash bilan shug`ullanmoqda.

Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari, Osiyo "Krossroud" kredit kompaniyasi, O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O`zbekiston xususiylashtirish va investitsiyalar bo`yicha xalqaro "O`zprivatbanki" ABN AMRO bank, "Asaka" banki, Aksiyadorlik-tijorat "Agrobank", Aksiyadorlik-tijorat "Mikrokreditbank" kabi qator moliya institutlari fermer xo`jaliklari loyihalarini moliyalash uchun qat'iy valyutadan kreditlar berishadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi kreditlarni faqat milliy kompaniyalarga beradi va hozirgi paytda qo`shma korxonalarni tashkil etishga ko`proq e'tiborni qaratadi.

Shuningdek, xalqaro moliya korporatsiyasi maslahat berishda va boshqa moliyalash manbalarini jalb etishda ishtirok etadi. Uning O`zbekistondagi strategiyasining muhim qismi xususiy sektor, tarkibiy yangilanishlar va xususiylashtirish yo`nalishidagi aniq loyihalarni moliyalashtirishdan iborat.

1.2 Fermer xo`jaligida moliyaviy mablag`lardan foydalanishning samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari

Fermer xo`jaliklari mahsulot yetishtirish va xizmat ko`rsatishni tashkil qilish uchun sarmoya sarf etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, har bir investor sarmoyasini sarflashdan oldin sarmoya sarflanadigan tadbir qanday natija berishini, uning iqtisodiy samarasi qanday bo`lishini bilishni talab etadi. Fermer xo`jaligi ham sarflanadigan yoki yo`naltiradigan kapital sarflarni, uzoq muddatga foydalaniladigan vositalarni tashkil etishga qaratilgan mablag`lar samarasini loyihalashtirish jarayonini ko`zda tutadi.

Fermer xo`jaligi biron tadbirni amalga oshirish uchun tashqaridan mablag` jalb qiladigan bo`lsa, tadbirni ifoda etuvchi loyihada ko`zda tutilgan sarf xarajatlari, iqtisodiy samaradorligi aniq hisoblangan bo`lishi kerak. Bu loyihaning texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligini (TEO) ifod alovchi hujjatda aks ettiriladi.

Bu masalani hal qilishda kapital sarflar va investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usulidan foydalaniladi.

Odatda, uzoq muddatga qilinadigan investitsiyaning absolyut yoki mutlaq va qiyosiy yoki nisbiy samaradorlik ko`rsatkichlari aniqlanadi. Mutlaq (absolyut) samaradorlik fermer xo`jaligi sarf qilgan sarmoya natijasida qo`shimcha natija, ya`ni sarf qilgan sarmoyaning bir birligiga olgan qo`shimcha yalpi daromad va foyda bilan ifodalanadi.

Fermer xo`jaligi bo`yicha bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$SS_a = \frac{\Delta YADyokiF}{} ;$$

S

Bunda: SS_a - mutlaq samaradorlik;

ΔYAD – qo`shimcha yalpi daromad;

F - qo`shimcha olingan foyda;

S - sarmoya (investitsiya) ning o`sgan qismi.

Masalan, fermer xo`jaligi bozor iqtisodi talablari darajasida bo`lishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlarni amalga oshirish xo`jalik foydasini har yili 8 mln. so`mga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda sarf-xarajatlarning samaradorlik koeffitsienti - 0,27 ni tashkil etadi.

$$SS_a = \frac{8m\ln}{30m\ln} = 0{,}27;$$

Investitsiya ayrim vositalar va yo`nalishlar bo`yicha sarflanganda mutlaq samaradorlikni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$SS_a = \frac{(T_o - T_1)xM}{S};$$

Bunda: T_o - sarmoya qilingunga qadar bo`lgan davrdagi mahsulot birligi;

T_1 - sarmoya qilingandan keyingi tannarx;

M- sarmoya qilishi natijasida olingan mahsulot yoki ish hajmi.

Masalan, fermer xo`jaligi sigirlardan sut sog`ib olishni mexanizatsiyalash uchun sog`ish agregatlarini sotib olib o`rnatdi. Bu tadbirlarga 15 mln. so`m sarf-xarajat qildi. Natijada 100 bosh sigirning har biri 3000 kg (30 sentner) sut beradigan, qo`lda sog`iladigan sigir mashinalar yordamida sog`iladigan bo`ldi. Sigirlar qo`lda sog`ilganda 1 sentner sut tannarxi 1300 so`m bo`lgan bo`lsa, ularni mashinada sog`ish natijasida 1 sentner sut tannarxi 1200 so`mni tashkil etdi. Shu tariqa har bir sentner sutni sog`ib olishdan 100 so`m tejashga erishildi. Ma'lumotlarni yuqoridagi formulaga qo`yish orqali bu tadbirga qilingan sarflarning

investitsiya iqtisodiy samaradorligini aniqlaymiz.

Bu tadbirga qilingan sarf-xarajat mutloq samaradorlik koeffitsienti - 0,2 ga teng bo`ldi. Sarmoya sarflarining me'yoriy samaradorlik koeffitsienti - 0,14 ga teng. Endi sarf-xarajatlarning samaradorligini yanada to`liqroq tushunish uchun ularni qoplash muddatini bilish kerak, ya'ni bu sarflar o`z qiymatini olingan qo`shimcha daromadlar bilan necha yilda qoplaydi. Sarf-xarajatlarni qoplash muddati quyidagicha aniqlanadi:

Fermer xo`jaligi bo`yicha:

$$Q = \frac{S}{\Delta F} = \frac{30000000}{8000000} = 3{,}7\ yil;$$

Bunda: *Q*- investitsiyani qoplash muddati.

Ayrim yo`nalishlar bo`yicha:

$$Q = \frac{S}{(T_o - T_1)*3000} = \frac{15m\ln}{3m\ln} = 5yil$$

Sarmoya turi bo`yicha:

$$Qt = \frac{1{,}0}{yil;\ 0{,}14} = 7{,}14$$

Bunda: *Qt*- investitsiyani qoplash muddati(sarmoya turi bo`yicha).

Har har uchala usulda ham qoplash muddati me'yoriy muddatdan kam bo`lganligi sarf-xarajatning iqtisodiy samarali ekanligini ko`rsatadi.

Qiyosiy yoki nisbiy samaradorlik ko`rsatkichlarini aniqlash uslubi biroz farqlidir. Bu usuldan biror bir tadbirni bir necha yo`lda amalga oshirish mumkin bo`lgan tadbirlarda foydalaniladi. Bu usulda iqtisodiy baho berishning asosiy mezoni eng kam xarajat qilish hisoblanib, u quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$S + N*K \rightarrow min$$

Bunda: *S* -mahsulot yoki ish birligi uchun qoplangan joriy xarajatlar;

N- kapital sarflar yoki investitsiyaning me'yoriy darajasi;

K- u yoki bu yo`nalishdagi kapital sarflar yoki investitsiya.

Keyingi asosiy ko`rsatkichlar foyda va foydalilik(rentabellik)dir. Foyda va foydalilik - barcha korxonalar kabi fermer xo`jaliklari faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko`rsatkichidir.

Hozir amalda qo`llanilayotgan Nizomga ko`ra, fermer xo`jaliklari faoliyati moliyaviy natijalarini shakllantirishda foydaning quyidagi ko`rsatkichlari qo`llaniladi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu mahsulotlarni (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi.

$$YAF=SST-It;$$

Bunda: *YAF* - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

It - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko`rilgan foyda. Bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o`rtasidagi tafovut va plus qo`shimcha asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ;$$

Bunda: *AFF* - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX - davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ - asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa zararlar.

3. Umum xo`jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar. Bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko`rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

$$UF=AFF+MD-MX;$$

Bunda: *UF* – umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy foliyatdan olingan daromad;

MZ - moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan zararlar.

4. Soliq to`langungacha olingan foyda. Bu umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko`zda tutilmagan) vaziyatlardan ko`rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

$$STF=UF+FF-FZ;$$

Bunda: *STF* - soliq to`lagungacha bo`lgan foyda;

FF - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlarda ko`rilgan zarar.

5. Yilning sof foydasi. Bu soliq to`lagandan keyin fermer xo`jaligi ixtiyorida qoladigan hamma xo`jalik sub'ektlari mustaqil tasarruf etadigan foyda. Uni soliqlar to`lagunga qadar bo`lgan foydadan, daromaddan soliqni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to`lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi.

$$SF=STF-DS-BS;$$

Bunda: *SF* - sof foyda;

DS – daromad(foyda)dan to`lanadigan soliqlar;

BS - boshqa soliqlar va to`lovlar.

Fermer xo`jaliklari tomonidan xo`jalik faoliyatini amalga oshirish natijasida quyidagi manbalardan olinadigan daromadlar(foyda) soliqqa tortiladi:

a) sotishdan olingan sof tushum;

b) asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar(operatsiya daromadlari);

s) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

d) favqulodda daromadlar.

6. Sof pul tushum bu - umumiy pul tushumidan qo`shilgan qiymat, aksiz solig`i va eksport boji olib tashlangandan qolgani.

7. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga undirilgan yoki e'tirof etilgan qarzlar, hisobot yilida olingan o`tgan yilgi foyda, oshxonalar va yordamchi xizmat daromadlari, asosiy vositalarni tugatishdan kelgan daromadlar, davlat subsidiyalari, xolisona moddiy yordam va boshqa daromadlar kiradi.

8. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga - olingan daromad transferti,

qimmatli qog`ozlar bo`yicha daromadlar, mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to`lovini olish), valyuta schyotidagi ijobiy kurs tafovutlari, qimmatli qog`ozlarni qayta baholashdan olingan va boshqa daromadlar kiradi.

9. Favqulodda foyda - bu ko`zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo`lgan, hodisa yoki fermer xo`jalikning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo`ladigan va olinishi kutilmagan foydalar.

10. Sotilgan mahsulot rentabelligi (*RSM*) yoki yalpi foyda bo`yicha rentabellik (*RYAF*)

$$RSM = \frac{RF}{SST};$$

Bunda: *RSM* - sotilgan mahsulot rentabelligi.

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so`mi qancha yalpi foyda keltirganini ko`rsatadi.

11. Sof foyda bo`yicha rentabellik (*RSF*).

$$RSF = \frac{SF}{SST}$$

; Bunda: RSF - sof foyda bo`yicha rentabellik.

Sof foyda bo`yicha rentabellik har bir sotilgan mahsulot korxona uchun qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda borligini ifoda qiladi.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy ishlab chiqarish ko`rsatkichlari bo`yicha fermer xo`jaliklari faoliyatini tahlil qilish, fermer xo`jaligi ishlab chiqarishining maqbul va samarali yo`llarini belgilash, investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

2-bob. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati, rivojlanishining asosiy xususiyatlari

2.2. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda eng samarali vosita, aholi bandligini ta’minlash, uning daromadlari oshib borishining g‘oyat muhim omili hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari, shu jumladan, fermer xo`jaliklari faoliyati barqarorligi ushbu sohalarga jalb qilinadigan investitsiyalarning davomiyligi bilan bog`liq. Respublikamizda fermer xo`jaliklari faoliyatiga investitsiyalar jalb qilish jarayoni yildan -yilga rivojlanib bormoqda. Bu esa, o`z navbatida, bunday sub'ektlar faoliyatini moliyalashtirish hajmining oshishi, ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatining yuksalishi, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o`rni va ahamiyatining yanada ortishiga olib keladi.

2008-2012-yillar davomida qishloq xo`jaligini investitsiyalash jarayoni o`sish tendensiyasiga ega bo`lgan.

2008 yilda qishloq xo`jaligida asosiy kapitalni barpo etishga 164,2 mlrd. so`m miqdorda investitsiya jalb qilingan bo`lib, bu iqtisodiyotga jalb qilingan umumiy investitsiyalarning 4,1 %ni tashkil etgan. 2013 yilga kelib ushbu ko`rsatkich 846,5 mlrd. so`mga yetib, umumiy investitsiyalarga nisbatan 4,6 %ni

tashkil qilgan. 2008-2013 yillarda ushbu maqsadda qishloq xo`jaligiga jalb qilingan investitsiyalarning umumiy investitsiyadagi ulushi 0,5 %ga ko’paygan.

Jalb qilingan investitsiyalar qaysi manbalar asosida shakllantirilayotganligi investitsion faoliyatning rang-barangligini ifodalaydi. 2011-2013 yillar mobaynida respublikamiz qishloq xo`jaligiga jalb qilingan investitsiyalar quyidagi manbalardan shakllantirilgan.

2011 yilda qishloq xo`jaligiga jalb qilingan investitsiyalar respublika byudjeti ajratmalari, korxona va aholi mablag`lari, bank kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga shakllantirilgan bo`lsa, 2012 yilda ushbu 4 ta manbaga “Sug`oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash” Fondi mablag`lari hamda boshqa manbalar mablag`lari ham qo`shildi

2011 yilda qishloq xo`jaligiga jalb qilingan umumiy investitsiyalarda respublika byudjeti mablag`lari 33,4 %ni tashkil etgan bo`lsa, 2012 yilda bu ko`rsatkichni 0,5 %ga kamaytirishga erishilgan. Shuningdek, 2012 yilda fermer xo`jaliklari yer maydonlarini meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish maqsadida “Sug`oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash” Fondi mablag`lari hisobidan 150 mlrd. so`mdan ortiq mablag` ajratilgan va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ hududlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, fermer

xo`jaliklari faoliyatini barqaror sur'atlarda rivojlantirish, ularning moliyaviy mablag`larga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish kreditlash amaliyotini takomillashtirishning zarur sharti hisoblanadi. Ma'lumki, tijorat banklari va nobank kredit muassasalari tomonidan beriladigan kreditlar, ularning joriy va investitsiyaviy xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbaidir.

Shu bois, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishni alohida ta'kidlab, quyidagi fikrni aytgan edilar: "Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang`ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko`lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirishi lozim".

Prezidentimizning 2006 yil 5 maydagi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to`g`risida"gi Farmonining qabul qilinishi, aytish mumkinki, mamlakatimizda fermer xo`jaliklaini kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo`lidagi muhim qadamlardan biri bo`ldi. Natijad a birgina 2012 yilda "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 214,0 mlrd. so`m miqdorida kreditlar ajratilgan bo`lsa, shundan 121,4 mlrd. so`mi imtiyozli mikrokreditlar va mikrolizing xizmatlarini tashkil qildi. 2013

yilda esa ushbu bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlar miqdori 274 mlrd. so`mga yetkaziladi. Uning 156,0 mlrd. so`mi imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlar ekanligi e'tiborga loyiqdir.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2008 yil 10 noyabrdagi “Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo`llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga muvofiq, fermer xo`jaliklariga beriladigan imtiyozli kreditlar foiz stavkalarining pasaytirilishi ularning bunday imtiyozlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirishni ta'minladi.

Bundan tashqari, so`nggi yillarda respublikamizda kichik biznes sub'ektlariga kredit ajratishda talab qilinadigan, xususan, mikrokredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ancha soddalashtirilgani ayni muddao bo`ldi.

Pirovardida endilikda tadbirkorlik sub'ekti kredit arizasiga 3 ta hujjatni: pul oqimlari ko`rsatilgan biznes-reja, ta'minot hujjatlari va buxgalteriya hisobotlarini ilova qilayotgan bo`lsa, yakka tartibdagi tadbirkor esa 2 ta hujjat taqdim etayapti, xolos.

Ta'kidlash kerakki, yurtimizda tijorat banklari va nobank kredit muassasalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillariga berayotgan kreditlar hajmi ning o`sish tendensiyasi yuzaga kelganligi ijobiy holatdir. Misol uchun, 2000 yilda ular tomonidan bunday sub'ektlarga ajratilgan kreditlarning umumiy miqdori 102,9 mlrd. so`mni tashkil qilgan bo`lsa, ushbu ko`rsatkich 2005 yilda 419,9 mlrd. so`mga, 2011 yilda 1851,7 mlrd. so`mga, 2012 yilda esa 2690,2 mlrd. so`mga yetdi. Ayni paytda shu davr ichida tijorat banklari tomonidan kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan mikrokreditlarning hajmi ham yuqori sur'atlarda o`sishi kuzatildi. 2012 yil 31 dekabr holatiga ko`ra, respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan mikrokreditlarning jami mikdori 485,2 mlrd. so`mni tashkil qilgani, mazkur ko`rsatkich 2000 yildagiga nisbatan 39,1 barobar ko`pligi buning tasdig`idir.

Shu o`rinda kichik biznes sub'ektlarini kreditlash jarayoniga xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari tobora keng jalb qilinayotganini ham ta'kidlab o`tishga to`g`ri keladi. Birgina 2012 yilda, masalan mazkur kredit liniyalari orqali kichik biznes sub'ektlarini kreditlash maqsadida yo`naltirilgan xalqaro kreditlar miqdori 146 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Hozirgi kunda Mikrokreditbank tomonidan fermer xo`jaliklariga davlat buyurtmasi asosida paxta va g`alla yetishtirish uchun yillik foiz stavkasi 3 foiz miqdoridagi imtiyozli kreditlar, qishloq xo`jalik texnikalarini sotib olish uchun yillik foiz stavkasi 5 foiz bo`lgan lizing uchun kreditlar hamda tijorat maqsadlarini amalga oshirish uchun bank o`z mablag`lari hisobidan ajratadigan, yillik foiz stavkasi 16 foiz bo`lgan tijorat kreditlari berilib kelinmoqda.

Mazkur bank tomonidan fermer xo`jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtirish xarajatlarini pul bilan ta`minlash maqsadida 2011 yilda qariyb 2 mlrd. 284 mln. so`m miqdorda kredit mablag`lari ajratgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2012 yilda qariyb 2 mlrd. 455 mln. so`mga, 2013 yilda esa qariyb 2 mlrd. 991 mln. so`mga yetdi. Ya`ni 2013 yilda ushbu maqsadda ajratilgan kreditlar hajmi 2011 yilga nisbatan 30,9 % ga ko`paygan.

G`alla yetishtirishni kreditlash maqsadida esa fermer xo`jaliklariga 2011 yilda qariyb 514 mln. so`m miqdorda pul mablag`lari ajratilgan bo`lsa, bu miqdor 2012 yilda qariyb 501 mln. so`mni, 2013 yilda esa 716 mln. so`mni tashkil qildi. 2013 yilda g`alla yetishtirish uchun berilgan kreditlar miqdori 2011 yildagiga nisbatan 39,3 %ga ko'paygan. Buni asosiy sababi bank mijozi bo`lgan fermer xo`jaliklarida g`alla yetishtirish bo`yicha davlat buyurtmasi kamaygan. 2013 yilda bu miqdor 2011 yilga nisbatan 39,3 %ga, 2012 yilga nisbatan esa 43,2 %ga ko`paygan.

2011-2013 yillar davomida Mikrokreditbank tomonidan fermer xo`jaliklarini yangi qishloq xo`jalik texnikalari bilan ta`minlashni kreditlash uchun yetarli darajada pul mablag`lari ajratilgan. Masalan, 2011 yilda fermer xo`jaliklari yangi texnikalarni lizing asosida sotib olishlari uchun qariyb 349 mln. so`m miqdorda kredit ajratilgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2012 yilda qariyb 437 mln. so`mga, 2013 yilda esa qariyb 518 mln. so`mga yetga. Lizing asosida berilgan kreditlar hajmi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 48,4 %ga ko`paygan.

Bu ko`rsatkichlar tumandagi fermer xo`jaliklari ishlab chiqarishi va texnik jihatdan yangilanishi jarayonini moliyalashning hozirgi holatini tavsiflovchi xarakterga ega. Agar paxta va g`alla yetishtirishga ajratilayotgan kreditlar miqdorining o`sishi bir tomondan davlat buyurtmalari va ichki iste`molning oshganligini, ikkinchi tarafdan esa narx koeffitsientining o`zgarishini ifodalasa, lizing asosida berilayotgan kredit mablag`larining bu tarzda ko`payib borishi esa qishloq xo`jaligini texnik va texnologik jihatdan yangilanib borayotganligini ko`rsatadi.

2012 yilga kelib, fermer xo`jaligi bank kreditidan foydalanishning samarali yo`llarini amalga oshirgan. Mazkur yilda paxta va g`alla yetishtirish uchun jami 99885 ming so`m miqdorda kredit olishdan tashqari, qishloq xo`jalik texnikalarini sotib olish va boshqa qishloq xo`jalik ekinlarini ekish uchun 86740 ming so`m miqdorda qo`shimcha pul mablag`lari olingan. Olingan texnikalar yordamida boshqa fermer xo`jaliklariga agrotexnik xizmat ko`rsatish va qo`shimcha yetishtirilgan qishloq xo`jalik mahsulotlarini mustaqil tarzda sotishdan olingan daromadlar 2012 yilda ishlab chiqarish rentabelligining 24,7 %ga ko`tarilishiga ta`sir etgan.

So`ngi yillarda, fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyaviy tahlili shuni ko`rsatadiki, xo`jaliklar ishlab chiqarish samaradorligining oshib borishi mahsulot tannarxiga bilvosita ta`sir etuvchi xarajatlarni amalda kamaytirishdan t ashqari, moliyaviy mablag`lardan bir vaqtning o`zida bir necha turdagi yo`nalishlarda foydalanish lozimligini ko`satmoqda. Bular orasida qishloq xo`jaligi oziq -ovqat mahsulotlari yetishtirish va texnik xizmatlar ko`rsatish ishlarini tashkil etish eng optimal variantlardan hisoblanadi.

Xulosa o`rnida aytish joizki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ularning faoliyatini yanada rivojlantirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi mavqeini mustahkamlash yo`lida keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

2.2. Qishloq xo`jaligini modernizatsiyalash borasida jahon mamlakatlari tajribalari

Xitoy qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishda dunyoda birinchi o`rinda turibdi. Xitoy qishloq xo`jaligidagi 329 million gektar yerning 224 million gektaridan foydalanish imkoni bor. Umumiy haydaladigan yer maydoni esa 110 million gektarni tashkil etib, dunyodagi haydaladigan yerlarni 7 foizini tashkil etadi. Xitoy klasifikatsiyasiga qaraganda yer fondining 21 foizigina yuqori unumdor yerlar hisoblanadi. Qishloq xo`jaligi sohasida faoliyat yuritayotganlar soni esa, dunyo iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan fermerlarning 40 foizini tashkil etadi.

Umuman Xitoyda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish uchun juda katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, yengil sanoat uchun kerakli xom ashyoni 70 foizi o`z imkoniyatlaridan kelib chiqib yetishtirilmoqda. Qishloq xo`jaligida 313 million odam oilasi bilan band bo`lsa, mavsumiy ishlarga 850 million odam jalb etiladi. Bu ko`rsatkich Rossiya, Yaponiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Meksikani qo`shib hisoblaganidan qam 6 barobar ko`pdir.

Xitoy piyoz, imbir va sarimsoqpiyoz yetishtirish bo`yicha dunyoda birinchi o`rinni egallab turibdi.

Xitoy qishloq xo`jaligi vazirligining statistik ma'lumotiga ko`ra o`tgan yili 60 ming tonna piyoz, 150 ming tonna imbir va 1,25 million tonna sarimsoqpiyoz eksport qilingan. Bu dunyo savdosining 90, 68 va 80 foizini tashkil etadi.

2008 yilda dunyo miqyosida 600 ming gektarga piyoz, 500 ming gektarga

imbir va 1,2 million gektarga sarimsoqpiyoz ekilgan bo`lsa, bu ko`rsatkich Xitoyning o`zida 540 ming, 240 ming va 770 ming gektarni tashkil etgan. Foiz hisobida ko`rilganda bu mazkur ekinlar ekilgan dunyo maydonlarining 90, 48 va 65 foizini tashkil etadi.

Financial Times gazetasining xabar berishicha, Xitoy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida mamlakat tashqarisidan qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlarni sotib olishni mo`ljallamoqda.

Shu maqsadda Xitoy qishloq xo`jaligi vazirligi mamlakat tashqarisidan qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yerlarni sotib olgan kompaniyalarni rag`batlantirish uchun maxsus davlat dasturini tayyorladi. Shunday qilib, Xitoy o`zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va chetga mahsulotlarni chiqarishni kafolatlamoqda.

Bugungi kunda parandachilik maqsulotlari yetishtiruvchi asbob-uskunalarni tayyorlash bo`yicha Xitoy dunyoda birinchi o`rinda turadi.

Xitoyda parranda parvarishi uchun uch xil: qo`lda boshqariladigan, yarim avtomatlashtirilgan va to`liq avtomatlashtirilgan jihozlar ishlab chiqariladi. Chunki Xitoyda xonadonlarda parranda parvarishiga katta ahamiyat qaratiladi. Shu sababdan ham bu zavodlarda jo`jalar boqiladigan, tuxumlarni terib yashiklaydigan, cho`chqa boqiladigan, kaptar, kaklik, quyon va boshqa jonivorlar boqiladigan jihozlar ham katta miqdorda ishlab chiqariladi.

Avtomatlashtirilgan tovuq boqiladigan jihozlarda esa, havoni almashtirishdan tortib, oziqlantirish, suv bilan ta'minlash, axlatlarini tozalash va tuxumlarni yig`ishtirib olishgacha hammasi avtomatlashtirilgan. Eng asosiysi - bu

jihozlar elektr energiyasini kam sarf etishi bilan ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bu jihozlarga Osiyo, Afrika, Janubiy va g`arbiy Amerikada ham xaridorlar serobdir.

Xitoyning kompaniyalari birinchi navbatda Afrika va Lotin Amerikasidagi yerlardan sotib olishmoqchi. Albatta bunday loyihalarni amalga oshirish uchun davlat banklari va investitsiya fondlari tomonidan kreditlar ajratiladi.

Financial Times gazetasining tahliliga ko`ra, Xitoyning milliy qishloq xo`jaligi aholining oziq-ovqat bilan bo`ladigan ta'minotini taminlay olmaydi. Shuning uchun rejalashtirilayotgan mamlakatlardan qo`shimcha qishloq xo`jaligi uchun yerlarni sotib olish jarayoni bilan birgalikda Xitoydan agrar sohadagi ishchilar ham shu mamlakatlarga yuboriladi.

Bu tadbirlar birgina Xitoyda rejalashtirilayotgani yo`q. Liviya davlati ham shu kunlarda Ukraina bilan, Ukraina yerlarida liviyaliklar uchun o`zlari kelib bug`doy yetishtirish bo`yicha o`zaro kelishuvlarni olib bormoqda.

Yaponiyaning Osyamambe posyolkasining Osima subprefekturasida tashkil etilgan "K" sutchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo`jaligi faoliyati tahsinga sazovor.

Fermer xo`jaligi rahbari Kimura Akiko xonim bo`lib, unda eri Kimura Masayuki va ota-onasi xamda uch nafar qizlari mehnat qilishadi. Fermer xo`jaligining beda silosi uchun 23 ga va makka doni yetishtirish uchun 5,5 ga jami 28 ga ekin maydoni bor. Qo`shimcha tardza beda silosi uchun 12 ga yer maydonini ijaraga olib mehnat qilishadi. Chorva mollarining holati quyidagicha:

12 oylikkacha bo`lgan kichik yosh mollar soni 31ta;

13-17 oylikkacha bo`lgan o`rta yoshli mollar soni 13

ta; 18-24 oylikkacha bo`lgan yosh mollar 12 ta;

24 oylik va undan katta qoramollar soni 91 ta bo`lib, shundan sog`in sigirlar 84 ta.

Ushbu qoramollarning barchasi golshtinskaya turidandir.

Fermada chorva mollari uchun 1 042,9 m^2 bino, sog`in sexi, chorva mollari gungini qayta ishlash uskunalari, 5 tonna sut saqlash idishlari, yem xashak saqlash va tayyorlash xonalari yashash imoratlari mavjud. Bir sog`in sigirning vazni 600-650 kg bo`lib yiliga 6-7 tonna sut sog`ib olinadi. Sutlarni avtomatik tarzda sog`ib olinadi. Sut sog`ish uskunalarni 50% ini davlat qoplagan, 40% uzoq muddatli kredit hisobiga, 10% shaxsiy mablag`lari hisobiga olingan. Yem mahsulotlarini fermer talabiga binoan yem sotish kompaniyalari tashlab ketadi. Sut mahsulotlarini kooperativlarning maxsus sut tashish mashinasi orqali qayta ishlashga olib ketadi.

Xokkaydo qishloq xo`jaligi kolleji 1946 yilda tashkil etilgan bo`lib, uning asosiy vazifalari mahalliy qishloq xo`jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Kollejda umumiy qishloq xo`jaligining ta`lim, tadqiqot sinovlari va malaka oshirish yo`nalishlari bo`yicha faoliyat yuritiladi. Kollejning umumiy yer maydoni 240 gektar bo`lib, 17,8 gektar yerda imoratlar, 112 gektar yerda o`rmon, qolgan yerlar qishloq xo`jaligi ekinlari uchun mo`ljalangan. Qishloq xo`jaligi texnikalaridan 14 ta traktor, 1 ta yuk mashinasi, 2 ta pilotsiz vertolyotlar mavjud bo`lib, o`quvchilarga qishloq xo`jaligi texnikalari yuzasidan ham ta`lim beriladi.

Kollejning barcha qishloq xo`jaligi ekinlari uchun tajriba yer maydonlari mavjud bo`lib, unda sabzavot, poliz, texnik, gulchilik ekinlari ekiladi. Chorvachilik

kompleksida 60 dan ortiq mollar bo`lib, bular golshteynskiy va maqhalliy qora turdagi mollardir. Yapon qora mollari go`sht uchun parvarish qilinib, og`irligi 600-700 kilogrammgacha bo`ladi, tirik vazn narxi 1,0 mln iyengacha bo`ladi. Golshtin mollari sutchilik uchun mo`ljallangan bo`lib, 650 kg vaznda yiliga 8 tonnagacha sut beradi.

Gollandiyada bir sigirning yillik sog`in davri 300-305 kun, mahsuldorligi esa 10-11 ming litrga to`g`ri keladi. Hozirgi kunda ilmiy-tadqiqot institutlari 15 ming litr sut beruvchi qoramol zotlari ustida seleksiya ishlarini olib boryapti.

Jahon tajribalariga nazar tashlasak, Amerikada fermerlik tizimiga asos solinganiga 180 yilga yaqinlashib qoldi. O`zbekistonlik mutaxassislar Amerikadagi fermerlar faoliyatini o`rganishib, quyidagi ma'lumotlarga ega bo`lishdi.

Birgina Kaliforniya shtati eng yuqori paxta hosili yetishtirish va eng yuqori mehnat unumdorligi bo`yicha dunyoda ajralib turibdi. Bu yerda 300 ming gektar yerdan o`rtacha gektaridan 45-46 sentnerdan paxta hosili olinadi.

Shu shtatda Lombard fermer xo`jaligi bo`lib, xo`jalikda hammasi bo`lib uch kishi, fermer va ikki o`g`li mehnat qilishadi. Xo`jalikni 128 gektar yerining 48 gektariga paxta, 45 gektar yerga beda ekilgan. Qolgan yerlarda bog` va boshqa ekinlar parvarishlanadi. Yana shu shtatda kelib chiqishi bo`yicha rus millatiga mansub bo`lgan K.F.Malofeyevning fermer xo`jaligi bor. Xo`jalik 560 gektar yerga ega bo`lib, shundan 180 gektar yerda paxta, 250 gektar yerda beda parvarishlanadi. Bundan tashqari xo`jalikda 1100 bosh qoramol go`shtga boqiladi. Hamma ishlar mexanizatsiya asosida bo`lganligi uchun birgina ishchi biriktirilgan, xolos.

Yuqoridagilardan birgina xulosa chiqadiki, Amerika fermerlari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishga va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga mos ravishda katta yer maydonlariga egalik qilishmoqda.

Bundan ellik yil muqaddam Isroilda barcha oziq-ovqat mahsulotlari kartochka sistemasida tarqatilar, aksariyat oziq-ovqat mahsulotlari gumanitar yordam sifatida boshqa mamlakatlardan olib kelinar edi.

Bugungi kunda Isroil to`la o`zini ta'minlab, har yili yarim milliard dollar atrofida qishloq xo`jalik mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Isroil davlati maydoni 21 ming km^2 (Surxondaryo viloyati maydoniga teng) bo`lib, maydonning teng yarimi sahro, ma`lum bir qismi tog`, adir va o`rmondan iborat. Dehqonchilik qilib haydaladigan yerlar 4370 km^2 ni tashkil qiladi.

Mamlakatda dehqonchilik qilinadigan yerlar juda kam bo`lib, suv undan ham kam. Shuning uchun qishloq xo`jaligida eng ilg`or texnologiyalarni qo`llash, yerdan, suvdan unumli foydalanish zaruriyatini tug’diradi.

Mamlakatda qishloq xo`jalik mahsulotlarining asosiy qismi issiqxonalarda yetishtiriladi. Zamonaviy issiqxonalar - murakkab xo`jalik bo`lib, kompyuterlar yordamida su`niy iqlim yaratiladi. Yana shunday uskunalar mavjudki, ular orqali o`simliklar tanasida bo`layotgan barcha o`zgarishlar nazorat qilib turiladi. Issiqxonalar qishloq xo`jaligi mahsulotlari eksportining asosiy, zaruriy qismi hisoblanadi.

Isroilda 50-yillarning boshida go`sht - sut sanoati oldiga o`sib kelayotgan aholining talabini qondirish uchun mahsuldorlikni bir necha barobar ko`paytirish

vazifasi qo`yilgan edi. Shundan so`ng har bir bosh sigirdan sut sog`ib olish 3300 litrdan 11000 litrgacha oshdi. Dunyo bo`yicha rekord ko`rsatkichga ega bo`ldi. Hozirgi kunda 400 xildan ortiq sut mahsulotlari ishlab chiqarish yo`lga qo`yilgan. Isroillik mutaxassislar har xil ozuqa aralashmalarini tayyorlab, avtomatik ravishda har bir chorva hayvoniga alohida taqsimlab beradigan kompyuterli kombaynlarni yaratishgan, bunday kombaynlar boshqa mamlakatlarda ham sotilmoqda. Isroil issiq bo`lganligi sababli qoramollar asosan shimoliy qismda boqiladi. Tez-tez suv changi va ventilyator bilan sovutib turiladi. Qoramollarni tana haroratini bir gradusga tushirish bir necha yuz litr qo`shimcha sut olish imkonini beradi.

Isroilda parrandachilik fermalari ham kompyuter orqali boshqarilib, xonalarning harorati, yorug`ligi, mo`tadil namlik rejimlari nazorat qilinib turiladi. har bir tovuqqa berilayotgan ozuqa miqdori va rejimi ham mexanizatsiyalashtirilgan. Har bir tovuqdan yiliga 280 donadan ortiq tuxum olinadi. Mamlakat parranda go`shtini is'temol qilish bo`yicha dunyoda birinchi o`rinda turadi. Aholi jon boshiga hisoblaganda 37 kg tovuq go`shti, 23 kg indyuk go`shti to`g`ri keladi. O`rtacha har bir isroillik 1 kunda 1 donadan tuxum iste'mol qiladi.

Yaman arab respublikasi yer sharining eng issiq joyi hisoblanadi. Bu yerda o`rtacha yillik havo harorati 32-33 darajani tashkil etadi. Havoning nisbiy namligi 82 foizni tashkil etib, yillik yog`in miqdori o`rtacha 93 mm.ni tashkil etadi. Havo harorati yanvar oyida 23,7 darajani tashkil etsa, iyul-avgust oylarida 44-45 darajaga yetadi. Agar paxta yanvar oyida ekilsa 8-9 kunda g`o`za unib chiqib, 115-130 kunda nav xususiyatiga qarab aprel-may oylarida ko`raklar ochila boshlaydi.

Shuning uchun Yaman arab respublikasida paxtadan yiliga ikki marotaba hosil olishadi. Yaman arab respublikasi va Tunisdagi paxtachilik O`zbekiston olimi A.A.Raximboyevning 1968-1970 yillarda u yerda olib borgan tajribalari bilan bevosita bog`liq. Raximboyevning tajribalari asosida u yerlarda O`zbekiston paxtalarining 108-F, 107-F, 138-F, S-450-555 va Akala navlari sinab ko`rilgan. Tajribalar yakuni bo`yicha Yaman arab respublikasida bu navlarni ekishning eng qulay muddatlari avgust-noyabr oylari bo`lib birinchi hosil yig`ishtirib olingandan so`ng paxta poyalari o`rib tashlanadi va suv-o`g`it berib qayta o`stirib ikkinchi hosil olinadi. Bu ikkinchi bor qayta ekishga qaraganda ancha iqtisodiy samaralar beradi. Yamanda esa qish davrida havo harorati ancha past bo`lib, 8-12 daraja iliqni tashkil etadi. Paxta ko`p yillik ekin bo`lganligi uchun, Yamanda paxtani ikkinchi yil hosil olishga qoldiriladi. Paxta birinchi yili hosilni berib bo`lib qishki 8-12 daraja iliq haroratda o`z rivojlanishini to`xtatib, qishlaydi. So`ng bahorgi harorat ko`tarilishi bilan rivojlanib, ikkinchi yil hosilini berishga harakat boshlaydi. Bu yerlarda paxta hosildorligi birinchi yili 30-35 sentnerni tashkil etsa, ikkinchi yil gektaridan 50 sentnergacha tashkil etadi

Mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning mohiyati va asosiy iyunalishlari .

I. Darsning maqsadi:

Bozor iqtisodi sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ularni faoliyatini moliyalashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

II. Darsda tushuncha berilishi tegishli bo'lgan asosiy termin va tushunchalar:

- Qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning nazariy asoslari ;
- Qishloq xo`jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaligida moliyaviy mablag`lardan foydalanishning samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari
- Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati, rivojlanishining asosiy xususiyatlari
- Qishloq xo`jaligini modernizatsiyalash borasida jahon mamlakatlari tajribalari

. Dars uchun zarur jihozlar va ma'lumot manbalari:

- 9 – klass darsligi
- 1.1 – rasmda berilgan tushuncha

IV. Darsning bosqichlari va vaqtning taqsimlanishi:

1	Tashkillashtirish bo'limi	2 daqiqa
2	Yangi mavzuni boshlashga tayyorgarlık	5 daqiqa
3	Yangi mavzuni tushuntirish: a) fikr olishish. b) mustaqil ish; d) analiz qilish; e) yakunlash.	27 daqiqa 5 daqiqa 10 daqiqa 7 daqiqa 5 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
5	Darsni yakunlash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa

V. Darsning bosqichlari:

1. Tashkillashtirish bo’limi

Salomlashadi. Uyga vazifa tekshiriladi.

2. Yangi mavzuni boshlashga tayyorgarlık

- Qishloq xo`jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaligida moliyaviy mablag`lardan foydalanishning samaradorlik ko`rsatkichlari va ularni aniqlash usullari

3. Yangi mavzuni tushuntirish.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda xalq xo`jaligining asosiy tarmog`i bo`lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar olib borildi. Qishloq xo`jaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar shakllandi. Agrar sohadagi bu xo`jalik yuritishning turli shakllari, asosan, fermer, dehqon xo`jaliklari bo`lib, respublika qonunchilik organlari tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratilib, xalq muhokamasidan so`ng qonuniy asos sifatida amaliyotda o`z ijobiy natijalarini bermoqda.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarining asosi bo`lgan bozor va bozor munosabatlari asosida har bir tarmoqni rivojlantirish orqali yuqori samara li natijalarga erishish ko`zda tutilgan. Ayniqsa, agrar tarmoqni rivojlantirishda bu dasturning bajarilishi o`z samarasini berib kelmoqda. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissini ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni erkin taqsimlashi hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi.

Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo`jaliklari boshqa sub`ektlarga nisbatan, amaliyotda o`zining bir qancha ijobiy hamda iqtisodiy ustunliklarini ko`rsatdi. Bu esa bozor munosabatlarida qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishni ko`paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istiqbolli xalq xo`jalik yo`nalishiga mos kelishini inobatga olib, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy

yo`nalishlari to`qrisida"gi PF-3226-sonli Farmoni qabul qilinib, unda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo`nalish qilib belgilandi. Farmonni amliyotga tatbiq qilish bo`yicha fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko`zda tutildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi PF-3342 sonli "2004-2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to`qrisida"gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrda 476-sonli "2004-2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasinini amalga oshirish chora-tadbirlari to`qrisida"gi va 2004 yil 24 dekabrdagi 607 -sonli "2005-2007 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`qrisida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan qishloq xo`jaligi maqsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo`jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun qulay sha rt-sharoitlar yaratish, shuningdek, qishloqda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosiy masala qilib belgilandi.

Ushbu me`yoriy hujjatlarda ko`zda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi respublikamiz fermer xo`jaliklarining har tomonlama samarali faoliyat yuritishlari uchun muhim dasturilamal bo`lib xizmat qilmoqda. Chunki hozirgi bozor iqtisodiyoti fermer xo`jaliklarini yanada rivojlantirish va ularni samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Buni prezidentimiz I.A.Karimov o`z asarlarida quyidagicha izohlaydilar: “Shu bilan birga, o`tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo`jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog`liq masalalarni hal qilishni qat`iy talab etmoqda”.

Darhaqiqat, fermer xo`jaliklarining barqarorligi va ular faoliyatining samaradorligi respublikamiz qishloq xo`jaligi rivojlanishining muhim shartlaridan hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo`jaligini isloh qilish, modernizatsiyalash va uning tarkibiy tuzilishlarini diversifikatsiyalash ushbu tarmoqlarda zamonaviy ko`rinishdagi va har tomonlama raqobatga

chidamli faoliyat sub`ektlarini rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qili shini hayotning o`zi ko`rsatmoqda. Shuni e`tiborga olgan holda, o`tgan davr mobaynida iqtisodiyot va qishloq xo`jaligini erkinlashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash borasida ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi. Bular esa, o`z navbatida, respublikamiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish, har xil iqtisodiy-ijtimoiy tahdidlarni samarali hal qilish imkonini bermoqda. Ushbu holatni prezidentimiz o`z asarlarida quyidagicha yoritganlar: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta`sirlaridan himoya qiladigan kuchli to`siq, aytish mumkinki, mustahkan va ishonchli himoya vositasini yaratdi”.

Respublikamizda fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, ularni faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish bo`yicha yetarli daraja da ilmiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan.

Bu borada tadbirlar ko`lami O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari yerlarini optimallashtirish va yiriklashtirish to‘g‘risida”gi, 2009 yilning 22 oktabrida “Fermer xo`jaliklarining yer uchastkalari hajmlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” Farmoyishlari hamda 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari tog`risida”gi Qarorida keltirilgan vazifalar bilan kengaytirildi. Bu me`yoriy hujjatlarga muvofiq, mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo`jaligida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo`naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko`proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to`siq va g`ovlarni olib tashlash kichik biznes subektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta'minlaydigan bozor

vositalari va mexanizmlarini tadbiq etishni yo`lga qo`yish amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar pirovardida fermer xo`jaliklari ishlab chiqarish faoliyati turlarini kengayishiga hamda qo`shimcha faoliyat turlarini tashkil qilinishiga olib kelmoqda.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligini moliyalashtirishning mohiyati va asosiy iyunalishlari? Ushbu savoldan mavzunı mustahkamlashda foydalanish maqsadga muvofiq. Guruhlarga 2 daqiqadan vaqt beriladi va fikrlari tinglanadi.

5. Darsni yakunlash va baholash.

Faol qatnashgan oquvchilar baholanadı va jurnalga rasmiylashtiriladi.

6. Uyga vazifa.

1. O`tilgan mavzuni o`rganish va takrorlash.

2. Mavzuda keltirilgan rasmni har tomonlama o`rganish va tushunchaga ega bo`lish.

Hayot faoliyati havfsizligi va favqulotda vaziyatlarida fuqoralarni muhofaza qilish

O’zbekiston Respublikasi Ministrler Ken`esinin` 19.07.2011 j. №208 sanli «Xaliqti jer silkiniwler aqibetinde payda bolatug`in ayriqsha jag`daylarda (ta`biiy ha`m texnogen tu`rdegi) ha`reket etiwge tayarlaw kompleks da`stu`rin tastiqlaw hakkinda»g`i qarari, Joqari ha`m orta arnawli bilimlendiriw ministrliginin` 22.07.2011 j. №310 sanli buyrig`in basshiliqka alinip ha`m orinlaw maqsteinde A`jiniyaz atindag`i No`kis Ma`mleketlik pedagogika instituti rektorati buyrig`i (25.12.2012 j. №601 D/1) tiykarinda «O`mir qa`wipsizligi» pa`ni barliq ta`lim bag`darlari boyinsha talabalarg`a oqiw protsessinde u`yretiw ushin, magistrlik dissertatsiya jumisi ha`m bakalavr qa`nigelik pitkeriw jumislarin orinlawda pa`nnin` huqiqiy tiykarlari kirgizildi.

4) binoan «Hayot faoliyati havsizligi» fanini barcha ta’lim yo’nalishlari bo’yicha talabalarga o’quv jarayonida o’rgatish uchun, svgistr dissertatsiyasini va bakalavr malakaviy bitiruv ishini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

“Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erinliklarini ximoya qilish ta’minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo’ladi. Har bir kishi o’z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o’z huquqi va erkinliklarini ximoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur” (İ. Karimov. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko’rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg’in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo’jaligi ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash hamda halokat o’choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o’z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg’in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatalar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo

mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallishi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 5 bo'lim va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OİTS/OİV kasalligining

oldini olish sohasidagi davlat ta’minoti, kasallikning oldini olish bo’yicha faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to’g’risida (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo’jalik o’simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o’tlardan himoya qilish to’g’risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo’jalik o’simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o’tlardan himoya qilishni ta’minlash, o’simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog’lig’iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta’sirining oldini olish bilan bog’liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to’g’risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo’lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog’lig’i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muhofaza qilishni ta’minlash bilan bog’liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo’lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O`zbekstan Respublikasi MK (1997 jil 27 dekabr`) №558-sanli qarari «O`zbekstan Respublikasinda ayriqsha jag`daylardin` aldin aliw ha`m olarda

ha`reket etiwde ma`mleketlik dizimi haqqinda»g`i qarari menen biykar etilip bul qarar qaytadan 2011 jil 24 avgustta O`zbekstan Respublikasi MK №242-sanli «O`zbekstan Respublikasinda ayriqsha jag`daylardin` aldin aliw ha`m olarda ha`reket etiwdin` ma`mleketlik dizimi jumislarin bunnan bilay jetilistiriw» haqqinda qarari menen toliqtirilip qayta shiqti.

O`zbekstan Respublikasi (2011 jil 19 iyul`) №208-sanli qarari «Xaliqti jer silkiniwler na`tiyjesinde payda boliw mu`mkin bolg`an ayriqsha jag`daylarda (ta`biiy ha`m texnogen) ha`reket etiwge u`yretiwdin` kompleks da`stu`rin tastiyiqlaw» haqqinda qarari tiykarinda barliq orinlarda ayriqsha jag`daylarda ha`reket etiyadin` kompleks da`sturleri islenip shig`ilip, oqiw mashqulatlari alip barilmaqta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil yy aprel, 143 – sonli). Qarorga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli). Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalari keltirilgan.

O’zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to’g’risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli). Qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomilashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to’g’risida»gi Nizom O’zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o’tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to’g’risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko’ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko’rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko’lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegarali turlarga bo’linadi.

O’zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to’g’risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o’tkazish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O’zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o’tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta’minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko’rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o’quv jaraenida talabalarga “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining barcha yo’nalishlari bo’yicha keng manoda tushunchalar berildi.

Xulosa

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi xalq xo`jaligining asosiy tarmog`i bo`lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Qishloq xo`jaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar shakllandi. Agrar sohadagi bu xo`jalik yuritishning turli shakllari, asosan, fermer, dehqon xo`jaliklari bo`lib, respublika qonunchilik organlari tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratilgan.

So`ngi yillarda respublikamizda barcha sohalar singari qishloq xo`jaligini ham diversifikatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga alohida e`tbor berilmoqda. Respublika agrar tarmog`ining asosiy ishlab chiqarish sub`ekti hisoblangan fermer xo`jaliklarining bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishida faqat bir sohada ishlab chiqarish faoliyati bilan shug`ullanish yetarli emasligi nazariy va amaliy tomonlama o`z isbotini topib bormoqda. Faoliyatni bunday tarzda olib borish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlarini pasaytiradi. Qo`shimcha daromadning yo`qligi yangi faoliyat turlarini tashkil etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va ko`zda tutilmagan zararlarni oqilona bartaraf etish imkoniyatini bermaydi. Bu salbiy omillar esa o`z navbatida, fermer xo`jaliklarini iqtisodiyotimizda barqaror va raqobatbardosh sub`ebt sifatida shakllantirishga to`sqinlik qiladi.

Respublikamizda fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalashning asosiy turlari sifatida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, boshqa fermer xo`jaliklariga agrotexnik xizmatlar ko`rsatish, turli moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etish va boshqalar yaxshi rivojlangan.

Fermer xo`jaliklarining qo`shimcha tarzda ushbu faoliyat turlari bilan shug`ullanishi, birinchidan, qo`shimcha daromad manbaining tashkil topishiga olib keladi. Bu esa o`z navbatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash imkonini beruvchi moliyaviy mablag`lar manbalarini shakllantiradi. Chunki ishlab

chiqarishni ichki manbalar hisobidan qayta tashkil etish, kengaytirish yoki yangilash har doim ham taqsimlanmagan foyda asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, bir-birini qoplash mexanizmi shakllanganligi hisobiga faoliyat barqarorligi ta`minlanadi. Bunda asosiy ishlab chiqarish faoliyatidagi ko`zda tutilmagan zararlar qo`shimcha faoliyatdan olingan foyda hisobiga qoplanadi. Bu holat teskari tarzda ham ro`y berishi mumkin. Ayniqsa, bu xususiyat iqtisodiy tavakkalchilik kuchli bo`lgan qishloq xo`jaligida qo`l keladi.

Uchinchidan, qishloq xo`jaligida investitsion muhit yaxshilanadi. Boshqa faoliyat turlarining moddiy-texnik bazasi va moliyaviy daromad manbaining mavjudligi investitsion tavakkalchilik darajasini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, tashqi investitsiya hisobiga ichki investorlik faoliyatini yuritish imkoni shakllanadi. Bunda ichki investitsion faoliyat sub`ekti sifatida diversifikatsiyalangan faoliyat sohalari namoyon bo`ladi.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi hamda mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha 2009-2012 yillarga mo’ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tijorat banklari tomonidan fermer va shaxsiy yordamchi xo`jaliklarida parrandachilik xo’jaliklarini, issiqxonalar tashkil etish va rivojlantirish, chetdan naslli qora mol olib kelish, xizmat ko’rsatish va servis sohasini rivojlantirish, minitexnologiya va ixcham uskunalar sotib olish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlovchi korxonalar hamda kasanachilikni rivojlantirishga 170 mlrd. so’mdan ortiq kredit mablag’lari ajratilishi ko’zda tutilmoqda.

Bozor iqtisodi sharoitida fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirish ularning takror ishlab chiqarishi davomiyligini ta`minlaydi. Hozirda ishlab chiqarish sub`ektlarini moliyalashtirish ishlari umumiy tarzda investitsion faoliyat deb nomlanadi. Ushbu investitsion faoliyatning ob`ekti hisoblangan investitsiya

mablag`lari yangi, samarali texnologiya hamda intellektual mulkni barpo etishga xizmat qiladi. Investitsiya mablag`lari doimiy va o`zgaruvchan kapitalni hamda

intellektni barpo etish, ularni rivojlantirish uchun sarflanadi. Fermer xo`jaligi investitsiya mablag`larini asosiy vositalarni sotib olish, qurish va kapital ta'mirlashga hamda aylanma vositalarga sarflaydi. Investsiyalar fermer xo`jaligining ishlab chiqarish vositalarini barpo etadi va ishga yaroqliligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi. I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. // Xalq so`zi, 2012 yil 20 yanvar, 14 (4434).
2. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. // Xalq so`zi, 2012 yil 18 fevral.
3. Karimov I.A. Demokratiok islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.-T.: 19. T. O`zbekiston, 2011.
4. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. – T.: O`zbekiston, 2009.
5. Jo`rayev O`.Yu. Fermer xo`jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiyalashning asosiy yo`nalishlari. “Qishloq va suv xo`jaligining zamonaviy muammolari” mavzusidagi iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlarning X – Respublika ilmiy amaliy anjumani to`plami. - T.: TIMI, 2011.
6. Olimjonov O. va boshqalar. “Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari”. – T.: Universitet, 2005.
7. Umarov S.R. va Jo`rayev O`.Yu. Fermer xo`jaliklari faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklarining o`rni. “Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: TIMI, 2011.
8. Umurzoqov O`.P., Toshboyev A. J. , Toshboyev A.A. “Fermer xo`jaligi iqtisodiyoti”. – T.: Iqtisod- Moliya , 2008.
9. Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A.A. “ Qishloq xo`jaligi iqtisodi ” – T.: “TDIU” , 2004.